

“Navoiyuran” DK  
Bosh direktorining  
2025 yil “ 13 ” yanvardagi  
13-sonli buyrug‘iga 5-ilova

“Navoiyuran” Davlat korxonasi 2025 yilda korrupsiyaga  
qarshi kurashish bo‘yicha

**DASTUR**

<b>№</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Muddati</b>	<b>Bajaruvchi</b>
1.	O‘zbekiston Respublikasni Prezidentining 2021-yil 6-iyuldaggi “Korruksiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-sonli qarori, korxona faoliyatiga kiritilgan ISO 37001:2016 “Korruksiyaga qarshi kurashish menejment tizimi - foydalanish bo‘yicha ko‘rsatma va talablar” xalqaro standarti talablaridan kelib chiqib:		
1.1	“Navoiyuran” DK “Komplayens xizmati” bo‘limiga nomzodlarni tanlash va ishga olish. Korxonada ishga qabul qilish jarayonini shaffof va ochiq bo‘lishini hamda sinov tadbirlarini internet tarmogi orqali real vaqt tizimida kuzatish tartibini ta’minlashni nazorat qilish.	2025 yil 1-chorak	Komplayens xizmati, Kadrlar boshqarmasi, Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish bo‘limi
1.2	Korxonaga ishga qabul qilinadigan xodimlar bilan mehnat shartnomalari tuzish jarayonida ularni korruksiyaga qarshi kurashish yo‘nalishini ishlab chiqish va asosiy ichki me’yoriy hujjatlar bilan tanishtirish, shuningdek, shartnoma shartlarida korruksiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi shartlarni kiritish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Kadrlar boshqarmasi
1.3	Korxonada ishlovchi xodimlarning mehnat shartnomalari, mansab yo‘riqnomalarini korruksiyaga qarshi kurashish siyosati talablari asosida qayta ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkillashtirish.	2025 yil 1-chorak	Komplayens xizmati, Kadrlar boshqarmasi
1.4	Korruksiyaviy holatlarni oldini olish, korxona xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish maqsadida boshqarma bo‘lim rahbarlari bilan kelishilgan holda reja asosida korruksiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida o‘qitish hamda huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida tushuntirish-profilaktik tadbirlarni amalga oshirish.	2025 yil reja asosida	Komplayens xizmati, Kadrlar boshqarmasi, bo‘limlar rahbarlari
1.5	Korxonada manfaatlar to‘qnashuv holatini o‘z vaqtida aniqlash, korruksiyaviy holatlarni salbiy oqibatini oldini olish. Uchinchi shaxslar bilan munosabatlarda manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ylmasligi, shuningdek, maxfiy va tijorat siriga oid ma’lumotlarni oshkor etilmasligi alohida nazoratga olish.	2025 yil 1-chorak va doimiy	Komplayens xizmati, Kadrlar boshqarmasi
1.6	Har bir xodimga yuklatilgan funksional vazifalardan kelib chiqib, korruksiyaviy xavf-xatarga moyillik darajasini aniqlash va ularni bartaraf etishga doir tashkiliy-huquqiy choralar ko‘rish. Taaluqli xabar korxonaning bo‘linmalariga kelib tushgan taqdirda, uni qabul qilgan mas’ul xodimlar zudlik bilan yozma	Doimiy	Komplayens xizmati

	shaklda bo‘linma rahbarini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha mas’ul xodimni kelib tushgan xabar to‘g‘risida xabardor qiladi.		
1.7	Korxona xodimlarining korrupsiyaviy hatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Yuridik xizmat.
2.	<b>O‘zbekiston Respublikasi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi 684-sonli Qonun talablaridan kelib chiqib:</b>		
2.1	Korxonada amalga oshiriladigan davlat xaridlari sohasida shaffoflik va qonuniylikni ta’minlash korrupsiyaviy holatlarning oldini olish maqsadida, davlat xaridlari sohasida o‘tkaziladigan tender (tanlov) natijalarini majburiy tarzda ochiq e’lon qilish amaliyotini nazorat qilish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Xaridlarni rejalashtirish bo‘limi, Axborot texnologiyalari va raqamlashtirish.
2.2	Korxona bilan shartnomaviy munosabatlarni tuzadigan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarni, kontragentlarni tekshirish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Xaridlarni rejalashtirish bo‘limi.
2.3	Korxona tomonidan tovarlar, ishlar, xizmatlar uchun tuziladigan shartnomalarni imzolanishida korrupsiyaga qarshi ogohlantirish bandini kiritish, tender o‘tkazilishi, investitsion loyihalarni amalga oshirishda korrupsiyaviy xavf-xatarni aniqlash va oldini olish maqsadida har bir jarayonda hujjatlarni tahlil qilish, tizimni ochiq, shaffof ishlashini nazorat qilish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Xaridlarni rejalashtirish bo‘limi.
2.4	Doimiy asosida davlat xaridlarida afillanganlik shu jumladan, xaridlar ishtiroychilarining oxirgi benefisiar egalariga taalluqli manfaatlar to‘qnashuvini aniqlash va oldini olish choralarini ko‘rish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Xaridlarni rejalashtirish bo‘limi.
2.5	Davlat xaridlari sohasida korrupsiyaga qarshi nazorat tizimining samaradorligini tahlil qilib borish, shuningdek, uni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish.	2025 yil fevral	Komplayens xizmati, Xaridlarni rejalashtirish bo‘limi.
3.	<b>Korxonada xodimlar tomonidan sovg‘a olish yoki berish hamda ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etishda, xayriya va homiylik yordamini ko‘rsatishni tartibga solishga doir:</b>		
3.1	Ichki me’yoriy hujjatlар (nizom, dastur, odob-axloq qoidalari, uslubiyot, siyosati, barcha tegishli hisobotlar) ishlab chiqish va shu talablar asosida, ish yuzasidan sovg‘alar berish va olish tartibi hamda ko‘ngilochar tadbirlarni tashkil etishda, xayriya va homiylik yordamini ko‘rsatishda korrupsiyaviy harakatlarga yo‘l qo‘ylmaslikni nazorat qilish.	2025 yil 1-chorakdan boshlab doimiy	Komplayens xizmati, Yuridik xizmat.
3.2	Sovg‘alar olish, berishning qonuniyligi to‘g‘risida shubha tug‘ilganda, korxona xodimlariga tushuntirish ishlarini tashkil etish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Yuridik xizmat.
4.	<b>Korxonada korrupsiyaviy xavf-xatarlar mavjud bo‘lgan sohalarini ichki me’yoriy hujjatlarini ishlab chiqish asosida tartibga solish va nazoratga olish yo‘nalishida:</b>		
	Korxona faoliyatida, qonunchilikka o‘zgartirishlar kiritilgan taqdirda ISO 37001:2016 xalqaro standart talablaridan kelib chiqib, korxona faoliyatiga		

4.1	kiritilgan ichki me'yoriy hujjatlarni xatlovdan o'tkazib, yangi tahrirdagi korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatini tartibga soluvchi ichki me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.	2025 yil davomida	Komplayens xizmati, Yuridik xizmat.
5.	<b>Korrupsiyaga qarshi kurashishda ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik va targ'ibot-tashviqot ishlari amalga oshirishga doir:</b>		
5.1	Korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishida olib borilayotgan tadbirlar va davra suhbatlarini ommaviy axborot vositalarda hamda korxonaning ijtimoiy tarmoqlaridagi rasmiy sahifalari orqali yoritib borish.	2025 yil har chorakda	Komplayens xizmati, Axborot xavfsizlik xizmati
5.2	Korxonada korrusiyaga qarshi kurashish sohasida axborot materiallarini tayyorlash va stendlarga joylashtirish, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali yoritib borish bo'yicha takliflar berish.	Doimiy	Komplayens xizmati, Axborot xavfsizlik xizmati.
6.	<b>Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash:</b>		
6.1	Korxona rasmiy saytda uchta (uzbek, ingliz, rus) tilida korrupsiyaga qarshi kurashish yo'nalishdagi ichki me'yoriy hujjatlarni joylashtirish (korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, manfaatlar to'qnashushi to'g'risida, Odob-ahloq qoidalari) hamda korxonada korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni doimiy yoritib borish.	2025 yil 1-chorakdan boshlab doimiy	Komplayens xizmati, Axborot xavfsizlik xizmati.
6.2	Korxonada korrupsiya xavf-xatarlarini o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, imkon beruvchi sabablar shart-sharoitlarni bartaraf etish hamda minimum darajaga tushirishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqib amalga oshirish.	2025 yil 1-chorakdan boshlab doimiy	Komplayens xizmati, Axborot xavfsizlik xizmati.